

O'ZBEKISTON VA XITOY XALQ RESPUBLIKASI: TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK

K.M. Mamatraimov

TerDU magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada ikki mamlakat o'rtaida XX asr oxiri-XXI asr boshlarida amalga oshirilayotgan o'zaro manfaatli va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarining rivojlanish bosqichlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro munosabatlar, strategik sheriklik, iqtisodiy munosabatlar, manfaatli hamkorlik.

ABSTRACT

The article scientifically analyzes the development stages of mutually beneficial and multilateral cooperation between the two countries in the late 20th and early 21st centuries.

Key words: International relations, strategic partnership, economic relations, beneficial cooperation.

KIRISH

XX asrning 90-yillari dunyo mamlakatlari siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'lgan davr sifatida tarixda qoldi. Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida uning o'rnida mustaqil demokratik respublikalar tarix sahnasiiga chiqdi. Ana shu davlatlar qatoriga mustaqil O'zbekiston Respublikasi ham qo'shildi va keng qamrovli tashqi siyosiy faoliyat davriga dastlabki qadamini tashladi. Mustaqillik Deklaratsiyasi¹ning qabul qilinishi O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishda tamal toshini qo'ydi. Mazkur deklaratsiyada tashqi siyosat tamoyillari uchun asos bo'lgan "Xelsinki shartnomalari"ga amal qilgan holda, tashqi siyosatda boshqa davlatlarning milliy suvereniteti va tashqi munosabatlarining hurmat qilinishi belgilandi va bu mamlakatning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni alohida ekanini tan olmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy yo'nalishi - insonparvarlik, oshkoraliq, o'z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lishdir. Shu bois istiqlol yillarda mamlakatimiz

¹ "Mustaqillik Deklaratsiyasi" - O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetiningi 20.06.1990-yil ikkinchi sessiyasi

133 davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o‘rnatgan, Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini faoliyat olib bormoqda².

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may oyidagi «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi qarori va 1994-yil mart oyida qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorlari asosida shakllantirildi. Mazkur qarorlarning amalga oshirilishi samarasi o’laroq keyichalik «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. 2012-yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi» e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi – bu davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo‘nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir. Qabul qilingan konsepsiya muvofiq mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq ekanligi mamlakatimizning dasturiy maqsadlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini tan olgan dastlabki davlatlardan biri sifatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlik munosabatlarining yo‘lga qo‘yilishi o‘ziga xos tarixga ega. Jumladan, 1992 yil 2-yanvarda XXR Tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik vaziri Li Lyantsinning O‘zbekistonga tashrifi davomida ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlarni o‘rnatish to‘g‘risida Bayonna maʼlumat imzolangan. 1992-yil 15-oktabrdan Toshkentda XXR elchixonasi, 1995-yil 6-maydan Pekinda O‘zbekiston Respublikasining elchixonasi faoliyat ko‘rsata boshladi³. XX asr 90-yillar oxirlari va bugungi kungacha O‘zbekiston Prezidenti Xitoya bir necha bor rasmiy vizit bilan boradi, bu tashriflar ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik va do’stlik aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2014-yilning avgust oyida Xitoya davlat tashrifi ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tardi. Mazkur tashrif doirasida umumiyligi qiymati 5,2 milliard AQSh dollariga teng loyihalar bo‘yicha yigirmadan ziyod hujjat, shuningdek, 800 million dollar miqdorida savdo shartnomalari imzolangani va shu

² <http://www.stat.uz> (Statistik maʼlumotlar portalı)

³ Sadibekova B. Xitoy iqtisodiyoti. III qism. – T., 2011. – 89 b.

tariqa jami 6 milliard dollarlik kelishuvga erishilgani o‘zaro hamkorlik ko‘lami yanada kengayib borayotganidan dalolat beradi⁴. Mamlakatlarimiz o‘rtasida munosabatlar Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya, Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma, Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo‘shma deklaratsiya hamda boshqa ko‘plab ikki tomonlama muhim hujjatlar asosida izchil rivojlanib bormoqda.

O‘zaro savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni kengaytirish, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash ikki tomonlama munosabatlarda ustuvor o‘rin tutadi. O‘zbekiston ham, XXR ham ulkan iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar qatoriga kirganligi sababli mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik yuksak samaralar bermoqda. Hamkorlikni rivojlantirishdan katta manfaatdorlik tufayli o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ham jadal sur’atlar bilan o‘smoqda. O‘zbekistonda XXR kapitali ishtirokida qariyb 310 ta qo‘shma korxona tashkil etilgan, XXRning 70 dan ziyod yetakchi kompaniyalari vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. Ikki davlat o‘rtasida hamkorlik aloqalarining rivojlanishida XXRning “Bir makon-bir yo‘l” tashabbusi muhim ahamiyat kasb etadi. “Bir makon, bir yo‘l” — Markaziy Osiyo, Yevropa va Afrika mintaqasida joylashgan 60 dan ortiq mamlakatlarni o‘zaro bog‘lovchi iqtisodiy yo‘laklarni yanada takomillashtirish hamda yangi transport va savdo yo‘llarini yaratishga qaratilgan xalqaro dastur hisoblanadi. Ushbu hududdagi davlatlar jahon yalpi ichki mahsulotining 55 foizini, global energiya zaxiralarining 75 foizini o‘zida jamlagan⁵.

XXR tashabbusi bilan ilgari surilgan ushbu dasturda O‘zbekistonning tranzit hudud vazifasini o‘tab berishi mamlakatni iqtisodiy jihatdan yanada yuksaltirish imkonini beradi. O‘zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy billan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor bilan qaraydi. Bu ikki mamlakat bir-biri bilan bir necha ming yillik hamkorlik rishtalari bilan bog‘langan, madaniyatimiz, ma‘naviyatimiz bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va aloqalarning tarixiy ildizlari zamонавиy bosqichdagi hamkorlikning rivojlanishiga ham samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. Xitoyda amalga oshirilgan keng miqqiyosdagি iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy islohotlar tajribasi O‘zbekiston Respublikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi O‘zbekiston Respublikasi Xitoyning dasturlarida tranzit hudud sifatida muhim o‘rin tutadi.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda Xitoy, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarga taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Xulosa o‘rnida shuni aytish

⁴ <http://www.stat.uz> (Statistik ma'lumotlar portalı)

⁵ “Marifat” gazetasi ning 26.04.2019 dagi soni

mumkinki O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, jumladan Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorligi mustaqil tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. "Mustaqillik Deklaratsiyasi" - O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetiningi 20.06.1990-yil ikkinchi sessiyasi
2. <http://www.stat.uz> (Statistik ma'lumotlar portalı)
3. Sadibekova B. Xitoy iqtisodiyoti. III qism. – T., 2011. – 89 b.
4. <http://www.stat.uz> (Statistik ma'lumotlar portalı)
5. "Marifat" gazetasi ning 26.04.2019 dagi soni.
6. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 334-337.
7. Saidov, S. (2022). "TADBIR UL-MANZIL" RISOLASI–OILAVIY MUNOSABATLAR UCHUN DASTURULAMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 894-897.
8. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELTIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.
9. Saidov, S. (2023). "TARIXI GARDIZIY" ASARINING TARIXIY QIYMATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 842-847.
10. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.
11. Saidov, C. (2022). ЯНГИ МАҲНАВИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИБН МУҚАФФА АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(3), 19-22.